



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR: IQTISODIY TARAQQIYOT VA SAMARADORLIK GAROVI

Nurdullayev Alisher Niyatilla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar milliy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Ular orqali ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi, yangi texnologiyalar joriy etiladi va mavjud infratuzilma modernizatsiya qilinadi. Shu bois asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga sarmoya kiritish korxonalar faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, investitsiyalar orqali zamonaviy texnologiyalar va ilg'or boshqaruv tajribasi jalb qilinadi, bu esa mahsulot sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulotning qo'shilgan qiymati oshiriladi. Shu bois, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar milliy iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy samaradorlikning garovi sifatida qaraladi. Ular nafaqat ishlab chiqarish va bandlikni oshirish, balki mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Hududda amalga oshirilayotgan investitsion faoliyat ko'rsatkichlarini tizimli tahlil etish orqali investitsiyalar sohasidagi mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

baholash, davlat tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosatning qay darajada amaliy faoliyatga ta'sir etayotganligini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida ushbu faoliyat sohasini yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Shu maqsadda, so'nggi yillarda yurtimizda hamda Sirdaryo viloyati hududida olib borilgan investitsion faoliyat ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi hamda kelgusida hududga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 – yil yakunlari bo'yicha Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida investitsiyalarning iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi uchun suv va havodek zarurligini, 2020-2022 – yillar davomida mamlakatimizga 8 mlrd. dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb qilinganligini aytib o'tdi hamda investitsiyalar oqimining ortishiga investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonun hujjatlarining qabul qilinganligi, mazkur qonun hujjatlariga muvofiq chora-tadbirlar amalga oshirilganligini ta'kidladi. Amalga oshirilgan ishlarning isboti o'laroq, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Respublikamiz hududida 766 ta sanoat zonasi, jumladan, 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 532 ta kichik sanoat zonasi, 210 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyat olib bormoqda, bundan tashqari kirib kelayotgan investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi.

2019-2024-yillarda hududlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

1-jadval Hududlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o'zgarish dinamikasi to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'mda)

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2019-yilga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi	193 164,2	210 195,1	239 552,6	266 240,0	356 071,4	493 652,0	255,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 750,6	7 089,8	8 110,7	10 254,0	12 959,2	20 530,9	234,6
Andijon	7 452,1	9 622,6	11 176,6	14 339,8	18 639,1	28 132,2	377,5
Buxoro	10 366,6	12 183,9	20 528,3	21 638,3	31 030,5	48 961,2	472,3
Jizzax	7 900,9	12 545,4	9 233,6	10 373,9	14 970,9	23 058,6	291,8
Qashqadaryo	24 462,5	20 557,6	17 359,1	16 012,8	21 138,0	32 996,9	134,9
Navoiy	17 646,3	15 688,4	15 020,1	17 958,1	26 398,6	34 024,5	192,8
Namangan	12 084,9	12 007,2	12 982,0	14 775,1	19 220,1	53 340,5	441,4
Samarqand	10 266,7	14 656,4	15 641,6	18 917,1	25 717,1	29 652,5	288,8
Surxondaryo	11 835,1	10 068,2	12 037,8	11 569,4	18 307,7	15 277,5	129,1
Sirdaryo	5 869,1	7 191,9	8 051,8	12 354,6	15 871,8	10 942,8	186,4
Toshkent	20 353,9	21 148,6	28 113,6	35 767,7	47 709,3	70 529,8	346,5
Farg'ona	8 685,4	11 040,0	12 625,2	15 419,3	19 955,0	22 383,5	257,7
Xorazm	5 032,0	5 391,8	8 292,0	8 769,7	11 666,1	14 795,3	294,0
Toshkent sh.	42 458,1	50 371,4	58 172,7	56 847,9	71 143,7	88 330,6	208,0

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi hududida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi umumiy hisobda 2019-yildagiga qaraganda 255,6 % o'sishni ko'rsatib, 493 652 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bunda Buxoro viloyati (472,3 % o'sish), Namangan viloyati (441,4 % o'sish) va Andijon viloyati (377,5 % o'sish)



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th January, 2026

Website: <https://econferencia.com>

investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha yetakchi hududlardan hisoblanmoqda. Shunday bo'lsa-da, Toshkent (346,5 % o'sish), Samarqand viloyati (288,8% o'sish) va Jizzax viloyatlariga (291,8% o'sish) kiritilgan investitsiyalarning miqdori ham sezilarli o'sishni ko'rsatgan.

Ushbu jalb qilingan investitsiyalar hajmining o'rtacha 35,7% qismi ishlab chiqarish sanoati tarmog'ida, 19,5% qismi elektr hamda energetika tarmoqlarida o'zlashtirilgan.

Investitsiyalar hajmida bo'lgan bunday katta o'zgarishga sabab qilib, 2019-yilda bo'lib o'tgan Covid-19 pandemiyasini keltirishimiz mumkin. Pandemiya sharoitida davlatlar, jumladan O'zbekistonda ham investitsiyalarga emas, aholining ijtimoiy himoyasi, ularga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatiga katta e'tibor qaratgan. Keyinchalik vaziyat yengillashgach, investitsiyalar hajmi yana o'sib boshlagan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar milliy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, asosiy kapitalga sarmoya kiritish barqaror iqtisodiy o'sish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashning garovi hisoblanadi.